



ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARDA BOG'LANGAN NUTQINI RIVOJLANTIRISH

D. M. Isoqjonova

Nizomiy nomidagi TDPU surdopedagogika va inklyuziv
ta'lim kafedrası o'qituvchisi

A. Safarova

Nizomiy nomidagi TDPU surdopedagogika va inklyuziv
ta'lim yo'nalishi 3- bosqich talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda bog'langan nutqni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. T.A.Ladijenskaya, N.A. Jimkin va L.M. Bikova kabi olimlarning yondashuvlari asosida bog'langan nutqning tuzilishi, uni shakllantirish bosqichlari hamda o'quvchilarda fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish usullari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Monologik nutq, bayon etish, tasvirlash, mulohaza, PAT.

Аннотация:

В данной статье описаны теоретические и практические основы развития связной речи у детей с нарушением слуха, Т.А. Лодиженская, Н.А. Джимкин, Л.М. Бикова на основе подходов таких ученых, рассмотрена структура связной речи, этапы ее формирования, методы развития умений мышления учащихся.

Ключевые слова : монологическая речь, заявление, описыват, рассуждение, ПАТ.



Annotation:

This article explores the theoretical and practical foundations of the development of connected speech in children with hearing impairments. Based on the approaches of scholars such as T.A. Jimkin, T.A. Ladizhenskaya, N.A. Jimkin, and L.M. Bikova it examines the structure of connected speech, the stages of its formation, and methods for enhancing students' cognitive skills.

Key words: monologic speech, statement, describe, reasoning, PAT.

Hozirda kar o'quvchilarning bog'langan nutqini rivojlantirish eng dolzarb muommolaridan biridir. Bog'langan nutq mantiq, grammatika, kompozitsiya qonunlari asosida tuzilgan bo'lib, o'zida bir butunlikni aks ettiradi, u mavzuga ega ma'lum vazifani bajaradi. Karlar maktabida bog'langan (monologik) nutqni rivojlantirishning asosiy vazifasi - bolalarni o'z fikrlarini, his-tuyg'ularini istaklarini bir nechta gaplarda ifodalab berishga o'rgatish, shuningdek bolalarni o'z taassurotlari, kechinmalari, ko'rgan filmini, bajargan ishlari va hayotlaridagi barcha hodisalar haqida bir muncha kengaytirilgan monologikni qurishga, ya'ni matn tuzishga, fikr bildirishga o'rgatishni ko'zda tutadi. Bunda monologik nutqni asosiy 3 turi ishlatiladi. Bayon etish, tasvirlash, mulohaza. Ommaviy maktablarda ham maxsus maktablarda ham boshlang'ich sinflarda aralash shakl ustunlik qiladi, unda tasvirlash va bayon etish elementlari, bayon etish va mulohaza elementlari birgalikda uchraydi, chunki kichik o'quvchilardan faqat tasvirlash yoki mulohaza ta'lab qilib bo'lmaydi, bayon etish, tasvirlash mulohaza bir-biridan tuzilishi, mazmuni tili bilan farq qiladi.

Bayon etishda o'zaro bog'langan izchil voqealar haqida gapiriladi. Lavhaga ega voqealar bayonining izchilligini odatda ularning tabiiy yo'nalishi bilan aniqlanadi. Asosiy diqqat faktlarga, ishtirok etayotgan shaxslarning harakatiga qaratiladi. Tomas Arnold e'tiroficha, voqeani bayon etishdan ishni mustaqil yozma insholardan boshlashini tavsiya etadi. Tasvirlashda – lavha, ishtirok etayotgan shaxslar, voqealar bo'linmaydi. Mulohaza – bu matn, unda bir ta'kidni isboti uchun mulohaza ishlatiladi, misollar keltiradi solishtirish va xulosa amalga oshiriladi, yangi mulohazalarga yetaklovchi va og'ir tasdiqlovchi yoki inkor etuvchi boshlang'ich



ta'kid mulohazalarga yetaklovchi va oxir tasdiqlovchi yoki inkor etuvchi boshlang'ich ta'kid tezis nomi bilan keladi.

T.A. Ladijenskaya, N. I. Jimkinning bog'langan nutq nazaryasiga tayanib o'quvchilar matn tuzish jarayonida egallab olishlari zarur bo'lgan quyidagi bilimlarni ajratadi:

- Matn mavzusini yoritish
- Matnning asosiy fikrini yoritish
- Matn uchun ma'lumot yig'ish
- Yig'ilgan ma'lumotlarni tizimlashtirish
- Ma'lum kompozitsion shaklga ega matnlar qurish
- Fikrlarini to'g'ri ifodalash

Mavzuni va matn (iboralarni) asosiy mazmunini yoritib berish bilimlari kar bolalar maktabida nutq rivojlantirish darslarida shakllantiriladi. Kar va eshita oladigan o'quvchilarni bo'g'langan nutqini rivojlantirish bo'yicha olib boriladigan ishda eng qiyini va eng asosiysi – umumiy hikoyaga taalluqli bo'lgan fikrni yetkazishga o'rgatishdir. Hikoyani mazmuni rejalashtirish jarayonida boshi, asosi va oxiri ajratib olinadi. Ma'lumotlarni tizimlashtirish bilimlari va ma'lum kompozitsion shaklga ega matnlarni tuzish reja ustida ishlash bilan bog'liq, reja matnning turiga ko'ra tuziladi.

L. M. Bikova boshlang'ich sinflardagi kar o'quvchilarni bog'langan nutqini xususiyatlari tavsiflab beradi.

Quyidagi xususiyatlar:

1. Matnning asosiy mazmuni va mavzusini to'liq yoritilmasligi yoki umuman yoritilmasligi, ayniqsa yozma bayonlarda ko'zga tashlanadi.
2. Reja tuzishda va unga asosan matn tuzishda mantiqni buzilishi (voqea bayonidagi uzilishlar, voqealar izchilligi buzilishi, sabab oqibat bog'liklarini o'rnatishdagi xatoliklar);
3. O'z fikrlarini ifoda etishda o'ziga xos sintaksis tuzilmalarni eshitishida nuqsoni bo'lgan bolaning ishlatilishida ko'p miqdorda nutqiy va grammatik xatolarni mavjudligi kuzatiladi.
4. Bog'langan matnni yozilganlarni mukammallashtirishda o'zini nazorat qilish va o'zini tekshirish bilimlarini mavjud emasligi ko'riladi.



5. Mustaqil ishlar yozma ishlarning sifat saviyasining pastligi ularni bajarishda individual va guruhlarda mustaqillik darajasida farqlanishlarning mavjudligi na'moyon bo'ladi.

Bog'langan nutqni muloqot vositasi sifatida rivojlantirish eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar maktabida o'tiladigan predmetli amaliy ta'lim mashg'ulotlarida amalga oshirish mumkin. Asosan tayyorlov va birinchi sinflarda o'quvchilar PAT darslarida o'zlari yasagan narsalari haqida o'z fikrini bayon qilib aytib bera olishga o'rgatishdir. Eng avvalo, o'qituvchi amaliy mashg'ulotda narsalar yasashda kerak bo'ladigan o'quv qurollari haqida tushuncha berib o'tadi. Bizga rangli qog'ozlar, qaychi, kley, chizg'ich, qalam kabi narsalar kerak. Bu o'quv qurollaridan biz bugun gul yasaymiz. Unda eng avvalo rangli qog'ozga qalam bilan gul rasmini chizib olamiz, qaychi orqali chizgan gulimizni qirqamiz keyin esa qirqib olgan gulimizni oq qog'ozga kley orqali yopishtiramiz deb tushuntirib o'tiladi. Bunda bolada "qalamda chizish", qaychida qirqish " "kley orqali yopishtirish" kabi tushunchalar shakllanadi. Keyin o'qituvchi har bir bola bilan alohida o'zlari yasagan narsalarni qanday yasaganini so'raydi. Shundagina bola o'zi yasagan narsani nima ekanligini va uni qanday yasaganini narsa yasayotganda nimalardan foydalanganini, qaychi bilan nima ish qilganini, kley bilan nima ish qilganini bog'langan nutq orqali tushuntirib bera oladilar. Bog'langan nutqni nafaqat PAT darslarida balki, boshqa fanlarda ham rivojlantirish mumkin. Bu fanlarda asosan bog'langan nutqni rivojlantirishda maxsus metod, usullardan foydalangan holda amalga oshiriladi. Masalan, ona tili, o'qish darslarida ham bog'langan nutqni rivojlantirishga qaratilgan maxsus metodlar mavjud.

Ona tili darslarida bog'langan nutqni eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda rivojlantirishda qo'llaniladigan metodlar xilma – xil bo'lib, ulardan biri „zanjir metodini“ ko'rib chiqamiz.

Zanjir metodi – bu eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning bog'langan nutqini rivojlantirishda qo'llaniladigan samarali metodlaridan biri hisoblanadi. Bu metod bolalarning so'zlarni va gaplarni izchillikda, mantiqiy tartibda o'rganib, ulardan foydalanishga o'rgatadi. Bu metod asosida bola ketma- ket so'z yoki gap bo'g'inlarini eslab qoladi va ularni bosqichma – bosqich to'liq gapga aylantiradi.



Har bir keyingi bo'g'in yoki gap oldingisiga bog'langan bo'ladi –ya'ni ular bir-biriga „zanjir“ kabi ulanadi. Masalan,

1. Momaqalldiroq
2. Momaqalldiroq kelmoqda
3. Bugun momaqalldiroq kelmoqda
4. Bugun osmonda momaqalldiroq kelmoqda

Har bir bosqichda bola oldingi gapni takrorlaydi va yangi so'z qo'shadi.

O'qish darslarida bog'langan nutqni rivojlantirish uchun esa hikoya metodidan foydalanish mumkin. Hikoya qilish metodida o'quvchi muayyan mavzu yoki rasmlar asosida o'z fikrlarini aniq, izchil va tushunarli bayon qilishga o'rganadi. Bu metod orqali o'quvchi matnni tushunishi, mantiqiy tarzda ifodalash ko'nikmalari shakllanib boradi. Rasm asosida hikoya qilishda o'quvchiga ma'lum mavzu asosida rasm beriladi. Unda ma'lum bir jarayon tasvirlangan bo'ladi. O'quvchiga tayyorlanib olishi uchun vaqt beriladi. Bu vaqt jarayonida o'quvchi rasmda qanday jarayon tasvirlanganini tushunishi kerak. O'quvchi tayyor bo'lganidan so'ng esa o'qituvchi bilan birgalikda rasmdagi jarayonni bo'g'langan nutq orqali tushuntirib berishi kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bu metodlar orqali o'quvchilarda lug'at boyligi oshadi, tasavvuri kengayadi, o'z fikrlarini erkin va aniq bayon qila oladi, xulosa chiqarish ko'nikmalari shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mamarajabova Z.N. Ona tili o'qitish maxsus metodikasida pedagogik texnologiyalar – T., 2004
2. Леушина А. М. Развитие связной речи у дошкольника // Ученые записки ЛГПИ им. А. И. Герцена. 1941. Т. 35. С. 27-71
3. Thomas Arnold A method of teaching the deaf and dumb speech, lip – reading, and language – London , 2004
4. Коровин К. Г. Методические основы формирования личности слабослышащего школьника в учебном процессе // Дефектология. 2002. С.21-24
5. Бельтюков В. И. Пути исследования механизма речи // Дефектология. 1984. С. 24-30.